



ZAMONAVIY TA'LIM JARAYONIDA MUSTAQIL TA'LIMNING AHAMIYATI

Raxmatova Nargiza Dolibayevna,

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
dotsent v.b.

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18iB.1658>

MAQOLA HAQIDA/O STAT'YE

Qabul qilindi: 18-may 2026-yil

Tasdiqlandi: 21-may 2026-yil

Jurnal soni: 18-B

Maqola raqami: 5

KALIT SO'ZLAR/КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

o'quv jarayoni, mustaqil ta'lim, kompetensiya, musiqiy ta'lim, nazorat qilish, refleksiya, tashkil etish, printsip, idrok etish, tahlil qilish, raqamli resurslar

ANNOTATSIYA/АННОТАЦИЯ

Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida mustaqil ta'limning o'rni, ahamiyati va pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, talabalarning mustaqil bilim olish ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Maqolada mustaqil ta'limning mazmun-mohiyati hamda uning shaxs rivojiga ta'siri tahlil qilingan. Mustaqil ta'lim orqali talabalarda ijodiy fikrlash, erkin qaror qabul qilish va muammolarni hal etish kompetensiyalari rivojlanishi asoslab berilgan. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning samarali jihatlarini ko'rsatib o'tilgan. Masofaviy ta'lim platformalari va elektron resurslarning mustaqil o'qish jarayonidagi o'rni ochib berilgan.

Maqolada o'qituvchining yo'naltiruvchi va motivatsion faoliyati ham muhim omil sifatida baholangan. Mustaqil ta'limning samaradorligi talabaning mas'uliyati va faolligiga bog'liqligi ta'kidlangan. Ta'lim jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish o'quvchilarning bilim sifatini oshirishga xizmat qilish qayd etilgan. Maqolada kredit-modul tizimida mustaqil ta'limning alohida o'rni mavjudligi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, talabalarning o'z ustida ishlash madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari bayon etilgan. Muallif tomonidan mustaqil ta'limni tashkil etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ham ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari zamonaviy ta'lim tizimida mustaqil ta'limning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur maqola pedagoglar, talabalar hamda ilmiy izlanuvchilar uchun foydali manba bo'lib xizmat qiladi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 18 May 2026

Approved: 21 May 2026

Volume: 18-B

Paper number: 5

KEYWORDS

educational process, independent learning, competence, music education, control, reflection, arrange, principle, perception, analyse, digital resources

ANNOTATION

This article highlights the role, importance and pedagogical possibilities of independent learning in the modern educational process. In today's era of globalization, the use of innovative approaches in the education system is gaining importance. In this regard, the formation of students' independent learning skills is one of the pressing issues. The article analyzes the essence of independent learning and its impact on personal development. The development of creative thinking, free decision-making and problem-solving competencies in students through independent learning is substantiated. The effective aspects of using information and communication technologies are also indicated. The role of distance learning platforms and electronic resources in the process of independent learning is revealed. The article also evaluates the guiding and motivational activities of the teacher as an important factor. It is emphasized that the effectiveness of independent learning depends on the responsibility and activity of the student. It is noted that the use of innovative methods in the educational process serves to improve the quality of students' knowledge. The article discusses the special role of independent learning in the credit-module system. It also describes the pedagogical foundations of forming a culture of self-study among students. The author also developed practical recommendations for organizing independent learning. The results of the research will serve to increase the effectiveness of independent learning in the modern education system. This article will serve as a useful resource for teachers, students, and researchers.

Kirish. Bugungi kunda dunyo miqyosida ta'lim tizimida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Globallashuv jarayonlari, ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi jamiyatning barcha sohalariga qatori ta'lim tizimiga ham yangicha talablarni qo'yimoqda. Endilikda zamonaviy jamiyat uchun faqat nazariy bilimga ega bo'lgan mutaxassis emas, balki mustaqil fikrlaydigan, muammolarni tezkor hal qila oladigan, innovatsion g'oyalarni ilgari suradigan va o'z ustida doimiy ishlaydigan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli ta'lim tizimida mustaqil ta'limni rivojlantirish masalasi dolzarb pedagogik muammolardan biriga aylangan.

Mustaqil ta'lim bugungi zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. U o'quvchi yoki talabaning bilim olish jarayonidagi faolligini oshirish, o'z ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirish hamda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, kredit-modul tizimining joriy etilishi bilan mustaqil ta'limga bo'lgan ehtiyoj yanada ortdi. Chunki ushbu tizimda talabaning asosiy faoliyati auditoriyadan tashqarida mustaqil ishlash orqali tashkil etiladi.

Hozirgi davrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi mustaqil ta'lim imkoniyatlarini kengaytirdi. Internet tarmog'i, elektron kutubxonalar, masofaviy ta'lim platformalari, multimedia vositalari va elektron resurslarning ko'payishi ta'lim oluvchilarga istalgan joyda va istalgan vaqtda bilim olish imkonini bermoqda. Natijada ta'lim jarayoni an'anaviy shakldan zamonaviy interfaol shaklga o'tmoqda. Bu esa talabalarni mustaqil izlanishga, bilimlarni tahlil qilishga va amaliyotga tatbiq etishga undaydi.

Mustaqil ta'limning asosiy maqsadi talabalarning bilim olishdagi faolligini oshirish, ularni erkin fikrlashga o'rgatish hamda kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlashdan iboratdir. Chunki zamonaviy mehnat bozori doimiy ravishda yangilanib borayotgan bilim va ko'nikmalarni talab qiladi. Shuning uchun har bir mutaxassis mustaqil ravishda yangi bilimlarni egallay olishi, zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirishi va o'z ustida mustazam ishlashi zarur bo'ladi.

Ta'lim tizimida mustaqil ta'limning ahamiyati shundaki, u talabaning nafaqat bilimini, balki uning shaxsiy sifatlarini ham rivojlantiradi. Jumladan, mustaqil ta'lim jarayonida talabalarda mas'uliyat hissi, vaqtni to'g'ri rejalashtirish, o'z-o'zini boshqarish, tanqidiy va ijodiy fikrlash kabi muhim kompetensiyalar shakllanadi. Bu esa ularning jamiyatda o'z o'rini topishi va malakali mutaxassis bo'lib yetishishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning turli shakllari qo'llanilmoqda. Jumladan, referatlar tayyorlash, ilmiy maqolalar yozish, loyiha ishlari bajarish, taqdimotlar yaratish, amaliy mashg'ulotlarni mustaqil bajarish hamda elektron ta'lim platformalaridan foydalanish shular jumlasidandir. Bu jarayonlar talabaning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirib, uning ilmiy izlanish olib borish qobiliyatini rivojlantiradi.

Shuningdek, mustaqil ta'lim ta'lim sifatini oshirishning muhim oliy sifatida ham e'tirof etiladi. Chunki talaba mavzuni mustaqil o'rganish orqali uni chuqurroq anglaydi va amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mustaqil ishlashga odatlangan talabalar dars mashg'ulotlarida faolroq qatnashadi, o'z fikrini erkin ifoda

etadi va murakkab vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila oladi.

Biroq mustaqil ta'limni tashkil etishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, ayrim talabalar tomonidan vaqtni noto'g'ri taqsimlash, internet resurslaridan samarasiz foydalanish, topshiriqlarga yuzaki yondashish va motivatsiyaning yetarli emasligi mustaqil ta'lim samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli mustaqil ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda o'qituvchining roli muhim hisoblanadi. O'qituvchi talabalarga metodik yordam ko'rsatishi, topshiriqlarni to'g'ri tanlashi va ularni rag'batlantirib borishi zarur.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarning qo'llanilishi mustaqil ta'lim samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, muammoli ta'lim, loyihaviy ta'lim, keys-stadi, elektron ta'lim va masofaviy ta'lim texnologiyalari talabalarni mustaqil fikrlashga undaydi. Natijada ta'lim oluvchi tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki bilimni mustaqil ravishda izlovchi va tahlil qiluvchi faol shaxs sifatida shakllanadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, zamonaviy ta'lim jarayonida mustaqil ta'limning o'rni va ahamiyatini o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur mavzuni o'rganish orqali mustaqil ta'limning ta'lim sifati va samaradorligiga ta'siri, talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi roli hamda uni samarali tashkil etish yo'llarini aniqlash mumkin bo'ladi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi zamonaviy ta'lim jarayonida mustaqil ta'limning mohiyati, vazifalari, afzalliklari va ta'lim samaradorligiga ta'sirini tahlil qilishdan iboratdir. Shuningdek, maqolada mustaqil ta'limni tashkil etishning zamonaviy usullari, axborot texnologiyalarining o'rni hamda mavjud muammolar va ularning yechimlari yoritib beriladi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda ta'lim tizimida raqobatbardosh va malakali mutaxassislarni tayyorlashda mustaqil ta'lim muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni samarali tashkil etish, talabalarni mustaqil ishlashga o'rgatish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash bugungi kunning muhim vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish masalalariga mahalliy va xorijiy psixologik-pedagogik tadqiqotlarda katta e'tibor qaratilgan. Hamdo'stlik mamlakatlari va xorijiy davlatlarining olimlari va ilmiy tadqiqotchilari tomonidan ham talabalarning mustaqil ta'lim olishlari uchun juda ko'plab tadqiqot va ilmiy ishlar olib borilgan. Ushbu jarayonda talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish talabalarning bilim faoliyati turi sifatlarini ko'plab ilmiy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Bular: A.G.Vyatkin, S.M.Godnik, G.M.Kodjaspirova, A.N.Riblova, M.N.Skatkin va boshqalar. Jumladan, talabalarning faoliyatini tashkil etish shakllarini B.P.Yesipov, P.I.Pidkasiy, A.S.Linda, I.I.Ilyasov; faollashtirish vositalarini M.A.Danilov, M.F.Morozov; individuallashtirishni V.A.Kurchatov, V.R.Rizayev, V.A.Yermakovlar o'rgangan. Shu bilan birga, ko'p bosqichli ta'lim tizimi talabalar mustaqil ta'limining mohiyatini, uning maqsadlarini talqin qilishning o'ziga xos xususiyatlariga ega. Ushbu talqin mutaxassis shaxsini shakllantirishni boshqarish jarayoni sifatida o'qitishning zamonaviy tushunchasidan kelib chiqishi kerak [2]. Olimlar o'z-o'zini nazorat qilish muammosini mustaqil o'quv ishlari bilan bog'laydilar. V.I.Straxovning fikricha, o'z-o'zini nazorat qilish - bu vazifaning bosqichma-bosqich bajarilishini tekshirishda, ish jarayonini tanqidiy baholashda, uning kamchiliklarini tuzatishda namoyon bo'ladigan, o'z-o'zini tarbiyalash vositalaridan biri bo'lib xizmat qiladigan faoliyat shakli, ijodkorlikni ochishga yordam beradi [7.]

Yurtimizdagi pedagog olimlardan M.Aripov, A.Abdugodirov, U.Begimqulov, F.Zakirova, D.Mamatov, L.Salixova, N.Taylaqov, M.Urazova, R.Sharafutdinov, S.Qahhorov, T.Shoyardonov, S.G'ulomov, U.Yuldashev, Q.Olimov, R.Boqiyev, A.Sattorov, A.Hayitov, B.Mo'minov, U.Inoyatov, Sh.Qurbonov, R.Djurayev, M.Fayziyev, G.Qurbonov, F.Nurulloev, A.Rashidov, Y.Asadovlar bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishda masofaviy o'qitish platformalaridan foydalanish, kasbiy faoliyatga tayyorlashda dasturiy ta'lim vositalarini qo'llashga doir ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Mustaqil ta'limning nazariy asoslari o'zini o'zi boshqarib o'qish g'oyasi bilan chambarchas bog'liq. B.Zimmerman bu jarayonni talabaning maqsad belgilashi, mos strategiyalarni tanlashi, o'z faoliyatini kuzatib borishi va natijani baholashi orqali o'qish faoliyatini ongli ravishda boshqarishi sifatida izohlaydi; bunda muvaffaqiyat tug'ma qobiliyadan ko'ra boshqaruv va o'zini nazorat qilish jarayoniga ko'proq bog'liq ekani ta'kidlanadi [3]. Pintrichning qarashlariga ko'ra, motivatsion resurslar bilan o'quv strategiyalari uyg'un ishlaganda barqaror akademik natijaga erishiladi; ayniqsa metakognitiv nazorat va o'z-o'zini boshqarish mustaqil o'qish samaradorligining markaziy omili hisoblanadi [4].

Biggs va Tang ta'lim jarayonini konstruktiv moslik tamoyiliga tayangan holda tashkil etishni taklif etadi: o'qitish metodlari va baholash mezonlari kutilayotgan o'quv natijalari bilan uyg'unlashganda, talaba mustaqil o'qish jarayonida aniq yo'nalishga ega bo'ladi, resurslardan oqilona foydalanadi va kuchini maqsad sari yo'naltiradi [5]. Boud hamda Falchikov baholashning o'qish jarayoniga ta'siri nihoyatda kuchli ekanini ta'kidlab, samarali baholash talabaning kelajakdagi mustaqil o'rganish faoliyatiga xizmat qilishi lozimligini asoslaydi; bu yondashuv mustaqil ta'limni baholash tizimisiz samarali yo'lga qo'yib bo'lmasligini ko'rsatadi [6]. Mahalliy me'yoriy hujjatlar hamda kredit-modul tizimi amaliyoti mustaqil ta'lim ulushini kengaytirish, o'quv natijalarini aniqlashtirish va baholash mezonlarining shaffofligini ta'minlash zarurligini belgilaydi. Shu tariqa ilmiy manbalar mustaqil ta'lim samaradorligi motivatsiya, o'quv strategiyalari, kurs dizayni, baholash hamda boshqaruv mexanizmlarining o'zaro bog'langan tizimi asosida ta'minlanishini ko'rsatadi.

Metodologiya. Har qanday bilimlarni o'zlashtirish uchun mustaqil ishlash ko'nikmalari inson tomonidan erta bolalikdan shakllanadi va hayoti davomida rivojlanadi. Universitetda o'qishni boshlashgacha har bir talaba maktabda, qo'shimcha ta'lim muassasalarida, maktabdan keyingi mashg'ulotlarda va kundalik hayotda olingan shaxsiy tajribaga va o'z harakatlarini tashkil etish ko'nikmalariga ega bo'ladi. Biroq, universitetda o'qiyotganda, mustaqil ishlarni tashkil etishga qo'yiladigan talablar sezilarli darajada oshadi, chunki ular murakkab umummadaniy va kasbiy kompetensiyalarni o'zlashtirish bilan bog'liq.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, talabalar mustaqil ta'lim talabalarini bajarishga tayyorlik darajasi bo'yicha farq qiladi. Masalan, bir guruh talabalar mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishga yo'naltirilganligi va uni amalga oshirish talabalarini muvaffaqiyatli yengishga imkon beradigan universal o'quv kompetensiyalariga ega ekanligi bilan tavsiflanadi (olingan ma'lumotlarni tushunish va eslab qolish qobiliyati, mantiqiy fikrlash, materialni yozma va og'zaki takrorlash, hisoblash, loyihalash va xokazo). Boshqa talabalar esa o'quv materialini o'zlashtirishda mustaqil ishlarni doimiy ravishda bajarishda barqaror yo'nalishga ega emaslar va universal o'quv kompetensiyalari va o'z-o'zini tashkil etish, nazorat qilish ko'nikmalarining past darajada rivojlanishi bilan ajralib turadilar. Bunday talabalar mustaqil ishni tashkil etishni o'rganishlari kerak. Mustaqil ravishda olingan bilimlar intellektual xususiyatlarni, diqqatni, kuzatuvchanlikni, tanqidiylikni hamda baholash qobiliyatini rivojlantiradi. Talabalar mustaqil ta'lim jarayonida bilimlarni chuqur o'zlashtiradilar hamda ularning mustaqil faoliyat ko'rsatish qobiliyatini rivojlanib boradi. Talabalarning mustaqil ishi nafaqat o'quv ma'lumotlarini, kasbiy faoliyatni amalga oshirish usullarini samarali o'zlashtirishga, balki talabalarda mas'uliyat, ijodkorlik, mehnatsevarlik kabi kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy fazilatlarini tarbiyalashga ham yordam beradi. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchining o'z mutaxassisligiga oid har tomonlama bilimlarga egaligi, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish layoqatining mavjudligini ifodalovchi kasbiy imkoniyatlar salohiyatini ham oshiradi. Turli darajadagi mustaqil ishlarni samarali bajarish uchun talaba o'quv vazifalarini hal qilish bo'yicha barqaror faoliyat usullariga ega bo'lishi kerak. Bunda avvalo, konspekt tuzish, tahlil qilish, misollar tanlash, taqqoslash, fanlararo aloqalar, qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish va boshqalar haqida so'z boradi.

Agar talaba nima sabab o'qiyotgani va yakunida qanday natijaga erishishi kerakligini aniq tasavvur qilmasa, mustaqil ta'lim ko'pincha keyinga suriladigan vazifaga aylanadi. Ichki rag'bat barqaror natijaga olib keladi, biroq u ham o'quv jarayoni dizayni orqali mustahkamlanadi: topshiriqlar kelajak kasbiy faoliyat bilan bog'lansa, murakkablik bosqichma-bosqich oshirilsa, talaba o'z rivojini sezadi va o'qishga qiziqishi ortadi [4]. Maqsad qo'yish umumiy ibora bilan cheklanmasligi kerak; u aniq va o'lchanadigan natijalarni ifodalashi lozim. Masalan, matnni shunchaki o'qish emas, balki asosiy g'oyalarni ajratish, dalillarni tasniflash yoki muhim terminlarni kontekstda qo'llash kabi vazifalar mustaqil ta'limni boshqariladigan jarayonga aylantiradi [5].

Keyingi muhim omil o'quv strategiyalari va metakognitiv ko'nikmalardir. Ko'plab talabalar katta vaqt sarflagan holda ham kutilgan natijaga erisha olmaydi, chunki o'rganish jarayoni tartibsiz: reja yo'q, yozuvlar tizimsiz, takrorlash tasodifiy, xatolar ustida ishlanmaydi. O'zini o'zi boshqarib o'qish yondashuvi "qanday o'qiyman" degan savolga javob beradigan ko'nikmalarni rivojlantiradi: ma'lumotni qismlarga ajratish, savol-javob usulida o'rganish, konseptual xaritalar tuzish, o'zini test qilish, xatolarni qayd etish va qisqa refleksiya yozish shular jumlasidandir [3]. Bunday ko'nikmalar tug'ma emas, o'qitish jarayonida shakllantiriladi; shu sabab samarali mexanizm o'quv strategiyalarini bevosita kurs mazmuniga singdirishni talab etadi.

Uchinchi omil vaqtin boshqarish va o'quv intizomidir. Mustaqil ta'limdagi muammolar ko'pincha "vaqt yetmadi" degan sabab bilan izohlanadi, aslida esa bu rejalashtirish va ustuvorliklarni belgilashning sustligidan kelib chiqadi. Kurs tarkibida qisqa muddatli nazorat nuqtalari

mavjud bo'lsa, talaba barcha ishini oxirgi haftaga yig'ib qo'yamdi; bu nafaqat akademik natijalarni yaxshilaydi, balki psixologik bosimni ham kamaytiradi [6]. Raqamli chalg'ituvchilar ko'paygan sharoitda vazifalar hajmi real bo'lishi, bajarish muddati aniq ko'rsatilishi, minimal talablar belgilanishi va yuqori natijaga intiluvchilar uchun kengaytirilgan topshiriqlar taklif etilishi muhimdir.

To'rtinchi omil o'qituvchi yoki tutor tomonidan ko'rsatiladigan qo'llab-quvvatlash hamda teskari aloqaning sifati bilan bog'liq. Mustaqil ta'lim talabani yolg'iz ishlashi degani emas; aksincha, to'g'ri tashkil etilganda teskari aloqa eng faol ishlaydigan bosqichga aylanadi. Tezkor, aniq va mezonlarga tayangan fikr-mulohaza talabani xatolarini vaqtida tuzatishga yordam beradi, noaniq va kechiktirilgan izoh esa o'qishga bo'lgan qiziqishni susaytiradi [6]. Ayniqsa birinchi bosqichlarda tutorlik qo'llovi o'quv strategiyalarini tanlash, manbalarni saralash, reja tuzish va o'zini baholash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon nazorat vositasi emas, balki mustaqil o'rganish madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik hamkorlik shaklidir.

Natijalar. Zamonaviy ta'lim tizimida mustaqil ta'lim o'quvchi va talabalarning bilim olishdagi faolligini oshirishning muhim vositalaridan biri sifatida qaralmoqda. O'tkazilgan pedagogik va ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, mustaqil ta'lim jarayoni talabani nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, uning amaliy ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng qo'llanilishi mustaqil ta'lim samaradorligini yanada oshirmoqda.

Tahlil davomida zamonaviy ta'lim tizimida kredit-modul tizimi, masofaviy ta'lim va elektron platformalarning joriy etilishi talabalarni mustaqil ishlashga yo'naltirayotgani aniqlandi. Talabalar internet manbalari, elektron kutubxonalar va multimedia vositalari orqali kerakli ma'lumotlarni mustaqil ravishda topish, tahlil qilish va ulardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu esa ularning ilmiy dunyoqarashi va kasbiy tayyorligini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, mustaqil ta'lim talabalarda quyidagi kompetensiyalarni shakllantirishi kuzatildi:

- mustaqil fikrlash;
- ijodiy yondashuv;
- muammoli vaziyatlarni hal qilish;
- vaqtni to'g'ri rejalashtirish;
- axborot bilan ishlash ko'nikmasi;
- o'z-o'zini nazorat qilish va baholash.

Tahlillar natijasida shuni ham ko'rish mumkinki, mustaqil ta'lim bilan muntazam shug'ullangan talabalar auditoriya mashg'ulotlarida faolroq qatnashadi va fanlarni chuqurroq o'zlashtiradi. Ular o'z fikrini erkin bayon qilish, ilmiy izlanish olib borish hamda amaliy topshiriqlarni bajarishda yuqori natijalarni ko'rsatadi.

Biroq ayrim muammolar ham mavjudligi aniqlandi. Jumladan, ba'zi talabalar tomonidan vaqtni noto'g'ri taqsimlash, internet resurslaridan samarasiz foydalanish va motivatsiyaning yetarli emasligi mustaqil ta'lim samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli o'qituvchilar tomonidan metodik yordam ko'rsatish, nazoratni kuchaytirish va interfaol metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, zamonaviy ta'lim jarayonida mustaqil ta'limning samarali tashkil etilishi ta'lim sifatini oshirish, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash va talabalarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda muhim omillardan biri ekanligi tahlil qilindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. 2020-yil 23-sentyabr, O'RB-637.
2. Asadova Y.I. Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishda masofaviy o'qitish platformalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish // *Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati*. B., 2023.
3. Zimmerman B. J. Becoming a self-regulated learner: An overview // *Theory Into Practice*. 2002. Vol. 41, No. 2. P. 64–70.
4. Pintrich P. R. A conceptual framework for assessing motivation and self-regulated learning in college students // *Educational Psychology Review*. 2004. Vol. 16, No. 4. P. 385–407.
5. Biggs J., Tang C. *Teaching for Quality Learning at University*. 4th ed. Maidenhead: Open University Press, 2011. 389 p.

Muhokama. Mustaqil ta'limni samarali yo'lga qo'yish mexanizmlari bir necha o'zaro bog'liq darajalarda ishlaydi. InstitutSIONAL darajada o'quv rejalarini va kredit yuklamasi mustaqil ta'lim ulushini real imkoniyatlar bilan uyg'unlashtirishi zarur. Metodik xizmatlar namunaviy topshiriqlar va baholash rubrikalari bankini shakllantirishi, kutubxona hamda elektron resurslardan foydalanish imkoniyatini kengaytirishi, akademik halollik tamoyillari esa aniq va barqaror ishlashi lozim [1]. Bu bosqichda quruq qoidalar emas, balki samarali infratuzilma va qo'llab-quvvatlov muhitining mavjudligi hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Kurs dizayni darajasida mexanizm yanada aniq shaklga ega bo'ladi. Har bir modul bo'yicha kutilayotgan o'quv natijalari belgilab olinadi, ularga mos mustaqil topshiriqlar ishlab chiqiladi, murakkablik darajasi bosqichma-bosqich oshiriladi, vaqt taqsimoti ko'rsatiladi va baholash mezonlari rubrika asosida joriy etiladi. Teskari aloqa berish kanallari oldindan belgilanadi [5]. Bu yondashuvda mustaqil topshiriq o'qituvchining qo'shimcha yuklamasi emas, balki o'qitish jarayonining markaziy vositasi sifatida qaraladi. Talabaga topshiriq bilan birga qisqa yo'riqnomaga taqdim etilishi muhim bo'lib, unda maqsad, bajarish tartibi, foydalaniladigan resurslar, kutilayotgan natija hamda baholash mezonlari ko'rsatiladi. Bunday yo'riqnomaga topshiriqlarni tushunarli qiladi va mustaqil o'qishni tartibga soladi.

Talaba darajasida esa mexanizm uning shaxsiy o'quv xulqi orqali namoyon bo'ladi: maqsad belgilash, rejalashtirish, mos strategiyani tanlash, o'zini tekshirish, xatolarni tahlil qilish va refleksiya qilish kabi ko'nikmalar asosiy o'rin tutadi [3]. Mazkur ko'nikmalarni shakllantirish uchun maxsus kichik topshiriqlar berilishi maqsadga muvofiq bo'lib, bu orqali esa talaba o'qish jarayonini boshqarish malakasini egallaydi. Natijada mustaqil ta'lim oddiy topshiriq sifatida qolmay, kompetensiya shakllantirishga xizmat qiladigan, rejalashtirilgan va nazorat qilinadigan ta'lim jarayoniga aylanadi.

Xulosa. Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish muammosi dolzarb va murakkab bo'lib, uni hal qilish o'qituvchilar va talabalar tomonidan katta kuch talab etadi. Mustaqil ishning mohiyati talabani topshiriqlarni o'qituvchining yordamisiz bajarishi emas, balki u o'z faoliyatini mustaqil ravishda boshqarishi bilan bog'liq. Shunday ekan, mustaqil bilim olishda avvalo, talabalarda mustaqil ishlashga, erkin, ijodiy faoliyat yuritishga ehtiyojni shakllantirish lozim. Talabani o'quv materialini o'zlashtirishga mustaqil ravishda intilishi, ilmiy manbalar, maxsus adabiyotlar bilan ishlashi, egallagan bilimlarini amaliyotda tatbiq etishi hamda o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqurroq bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni muhim ahamiyat kasb etadi. Talabani ichki rag'batini va maqsadning ravshanligi, o'qish strategiyalarining to'g'ri tanlanishi hamda metakognitiv nazorat, vaqtni rejalashtirish, tutorlik ko'magi va muntazam teskari aloqa, baholash mezonlarining shaffofligi, shuningdek raqamli resurslardan maqsadli foydalanish darajasi samaradorlikni belgilaydigan omillardir. Ushbu mexanizmlar bir-birini to'ldirib ishlaganda mustaqil ta'lim oddiy vazifalar ketma-ketligiga aylanib qolmaydi, talabada esa o'zini o'zi boshqarib o'qish kompetensiyasi bosqichma-bosqich shakllanadi. Shunday ekan, biz o'qituvchilar talabalarni o'qitish bilan bir qatorda ularga mustaqil bilim olish yo'llarini ko'rsatib borishimiz, ularning mustaqil ta'lim olishlarini rejalashtirish hamda talabalarga mustaqil ishni bajarish bo'yicha yo'llanma berib borishimiz lozim.

6. Boud D., Falchikov N. *Rethinking Assessment in Higher Education: Learning for the Longer Term*. London: Routledge, 2007. 220 p.

7. Коцакова Е.В. Самостоятельная работа студента: самоконтроль как основа формирования профессионального музыкального слуха // *современные проблемы науки и образования*. М., 2009.

8. Dolibaeva, R.N. (2023). BO'LAJAK O'QITUVCHILARINI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI. *Ta'lim fidoyilari*, 10, 197-201.

9. Dolibaeva, R. N. (2026). METHODS OF EDUCATION OF MUSICAL TASTE IN TEENAGERS. *SPAIN-SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION*, 1(13), 15-16